



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 31-yanvar

39-1-0-Q/25

Andijon viloyati hokimligi

Andijon viloyatida davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 30-dekabrdagi 01/23-18/1276-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 29-dekabrdagi 02/29-27269-sonli qo‘shma xatlarini inobatga olib hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi 660-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosini ta’minlan maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 30-dekabrdagi 01/23-18/1276-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 29-dekabrdagi 02/29-27269-sonli qo‘shma xatlari inobatga olinsin.

2. 2025-yil uchun:

faoliyat turlariga nisbatan davlat mulki va ularga biriktirilgan hududlardan foydalanganlik uchun qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari **1-ilovaga**;

sanoat zonalari hududlaridagi davlat ko‘chmas mulkini ijaraga berishda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari **2-ilovaga** muvofiq;

ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarning hisoblash tartibi **3-ilovaga**;

bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek alohida ajratilgan maydonlarda (asfaltlangan va betonlashtirilgan hududlarda) radio, uyali va peyjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida) foydalaniladigan maydon uchun ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorini hisoblash tartibi **4-ilovaga**;

ijara to'lovining eng kam stavkasini hisoblashda, davlat obyektlariga qo'shimcha koeffitsiyentlar qo'llaniladigan viloyatning shahar va tumanlaridagi birinchi darajali ko'chalar ro'yxati **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlari agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i (**Madrahimov**)ga:

davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;

davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovini belgilashda mazkur qarorning ilovasida ko'rsatilgan eng kam stavkalaridan tayanch sifatida foydalanish;

Bunda Xonobod shahri viloyatning tog'li va chegara hududida joylashganligini inobatga olib, davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovini belgilashda mazkur qarorning ilovasidagi **tumanlarga** belgilangan yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari bo'yicha hisoblash;

ijaraga berilgan davlat mulkini va uni ijaraga berishdan tushadigan mablag'larni hisobga olish va monitoringini olib borish;

ijaraga beriladigan davlat mulki bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

ijara obyektlaridan maqsadli foydalanilishini va ularning saqlanishini, shuningdek ijara to'lovi o'z vaqtida va to'liq to'lanishini nazorat qilish;

davlat mulkini ijaraga berish sohasidagi qonunchilikni buzish holatlari aniqlangan hollarda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnomalar rasmiylashtirish va sudlarga yuborish;

foydalanilmayotgan davlat mulki ijaraga berilishi to'g'risidagi e'lonlarni va ijaraga berilayotgan davlat mulklari ro'yxatlarini davriy nashrlarda hamda viloyat hokimligining, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasining va Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasining veb-saytlarida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtirilishini ta'minlash topshirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlari agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i (**Madrahimov**), viloyat Soliq boshqarmasi (**Qurbonov**), shahar va tuman hokimliklari

hududlarda ijara munosabatlarini tartibga solish, ijaraga berilayotgan davlat mulki hisobotini to'g'ri yuritish va byudjetga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida davlat mulkini balansda saqlovchilari tomonidan ijaraga berish samaradorligini oshirish va tashkillashtirishda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ysin.

4. Vazirlik va idoralarning viloyat boshqarmalari hamda tizim tashkilotlari balansidagi davlat mulklarini xatlovdan o'tkazsin va bo'sh turgan yoki samarasiz foydalanilayotgan davlat mulklarini ijaraga berish bo'yicha har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha Davlat agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga bu mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko'rsatilgan ma'lumotlarini taqdim etib borsin.

5. Davlat kadastrlar agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Berdiqulov) har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar viloyatda mavjud davlat mulki obyektlarining ro'yxatini elektron holatda Davlat agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga taqdim etib borsin.

6. Viloyat hududida 2025-yilda davlat mulki bo'lgan binolar va xonalarda joylashgan byudjet tashkilotlari uchun ijara to'lovining "nol" stavkasi belgilansin.

7. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Isomiddinov), davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan muassasalarning hisob raqamlari o'zgargan taqdirda, Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Andijon viloyati hududiy boshqarmasini xabardor qilib borsin.

8. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (M.Ibroximov) mazkur qarorni "Andijonnoma" va "Andijanskaya pravda" gazetalarida e'lon qilinishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

9. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan viloyat hokimining 2024-yil 07-fevraldagi "Andijon viloyatida davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 54-1-0-Q/24-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari D.Karimov, viloyat hokimining o'rinbosari I.Sabirovga yuklansin.

Viloyat hokimi



SH.Q.Abdurahmanov

Andijon viloyat hokimining
2025-yil 31-yanvardagi
39-1-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Andijon viloyati bo'yicha 2025-yilda 1 kv.metr uchun davlat mulki va ularga
biriktirilgan hududlardan foydalanganlik uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining
eng kam stavkalari (iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo'yicha)**

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	Andijon shahriga 2025-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga) (so'm hisobida)	Shaharlar va tumanlarga 2025 yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga) (so'm hisobida)
Ishlab chiqarish			
1.	Ishlab chiqarish turlari bo'yicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari)	16 000	11 300
2.	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	50 700	36 750
3.	Elektr energiya ishlab chiqarish	16 000	11 300
Qurilish sanoati			
4.	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, tunikafon, shifer, sement, senvich panel ishlab chiqarish va yog'ochni qayta ishlash)	16 000	11 300
5.	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	53 300	34 550
6.	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	84 800	48 450
Yengil sanoat			
7.	Yengil sanoat turlari bo'yicha (to'qimachilik, tikuvchilik, charm, mo'yna, poyabzal, sellyuloza-qog'oz sanoati)	16 000	11 300
Oziq-ovqat sanoati			
8.	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (yog', go'sht, baliq, ichimlik, un, qandolat)	16 000	11 300

	mahsulotlari hamda omuxta-yem sanoati)		
9.	Chorva (qo'y) mollarini so'yish va sotish (jumladan kushxona)	45 200	32 500
10	Sut mahsulotlari sanoati	31 300	22 600
11	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	45 200	28 200
Qishloq xo'jaligi			
12	O'simlikshunoslik (o'rmon xo'jaligi va bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	6 456 200	4 624 000
13	Issiqxona xo'jaligi 1 gektar yer maydoni uchun	16 101 000	11 101 000
14	Chorva va parranda yetishtirish (boqish)	7 700	5 600
15	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	14 456 200	9 624 000
16	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	4 196 900	3 005 900
Transport va aloqa			
17	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	16 000	11 300
18	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	8 200	4 050
19	Avtomobillarni yuvish	51 800	32 600
20	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	56 500	42 100
21	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (gaz quyish shaxobchalari)	63 000	45 600
22	Elektromobillarni quvvatlash shahobchasi	27 400	19 900
23	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	51 700	36 900
24	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	39 300	28 400
25	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va transport xizmatlari	29 100	21 000
26	Pochta va Kuryerlik aloqasi	35 900	26 000
27	Elektr-simli aloqa (WIFI Router)	32 300	23 000
28	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	135 600	97 200
Savdo va umumiy ovqatlanish			
29	Ulgurji savdo	45 200	32 500
30	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi	116 100	83 000

	ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari		
31	Chakana savdo	45 200	32 500
32	Sotuvchisiz elektron uskunalar orqali chakana savdoni tashkil etish	109 800	89 800
33	Umumiy ovqatlanish (Tabiiy va suniy suv havzalari hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari va taomlari savdosi, fast fud)	45 200	32 500
34	Kitob do'konlari	6 300	4 700
35	Lombardlar	58 400	41 800
Xizmat ko'rsatish			
36	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya)	45 200	32 500
37	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	67 800	48 700
38	Mehmonxona ho'jaligi	51 700	36 900
39	Umumiy yashash joylari (shu jumladan talabalar va o'quvchilar turar joylari)	40 200	28 200
40	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)	26 000	18 500
41	Mashina va uskunalarini ta'mirlash	16 000	11 300
42	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	35 900	26 000
43	Poligrafiya sanoati	39 300	32 500
44	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	35 900	26 000
45	Suv bo'yida xizmat ko'rsatish joylari (plyaj zonalari, baliq ovlash maskanlari, qayiqa suzish va suv sayohati va suv bo'yida turizm xizmatlarini tashkil etish)*	32 300	23 000
46	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	7 700	5 600
47	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelezi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	38 900	28 200
48	Hammomlar	77 800	55 600
49	Saunalar va basseynlar	155 000	111 100

Turizm xizmatlari			
50	Madaniy meros obyektlarida hunarmandchilik turlari bo'yicha (misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	48 200	37 700
51	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	38 200	27 700
52	Madaniy meros obyektlarida hostel va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish	90 700	70 700
53	Madaniy meros obyektlarida savdo xizmatlarini ko'rsatish (esdalik buyumlari, sovg'alar, hunarmandchilik mahsulotlari va h.k)	70 800	50 800
54	Madaniy meros obyektlarida umumiy ovqatlanish shohobchalari (restoran, kafe, fas-fud va h.k)	80 700	57 700
55	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka)	51 700	36 900
Sog'liqni saqlash			
56	Davolash maskani (statsionar davolash)**	32 300	23 000
57	Davolash maskani (shu jumladan laboratoriya, operatsion blok, stamatologiya, fizioterapiya)	99 500	79 500
58	Tibbiy asbob uskunalari o'rnatish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	123 100	103 100
59	Tibbiyot sanoati (Tibbiyot buyumlari, asbob uskunalari va dori vositalari ishlab chiqarish)	124 100	104 100
60	Fitobar	22 300	16 000
61	Dorixonalar (optika, tibbiyot anjomlari va jihozlari sotish)	54 400	29 200
62	Protez-ortopediya moslamalarini tayyorlash va ta'mirlash	32 300	23 000
63	Ijtimoiy-dorixonalar	23 000	15 000
Jismoniy tarbiya va sport			
64	Sport maydonlari (stadionlar)	29 300	24 300
65	Sport zallari (qo'l jangi, karate, kurash, sambo, erkin kurash va h.k)	16 000	11 300

66	Fitnes va yengil atletika zallari**	128 000	108 000
Ta'lim			
67	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (oliy, o'rta va maktabgacha tarbiya muassasalari)**	32 300	23 000
68	Tayyorlov kurslari ((IT, malaka oshirish va repitetorlik)	53 300	38 600
69	Oliy ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	31 500	22 700
70	O'rta maxsus ta'lim muassasalarida (jumladan maktablarda) umumiy ovqatlanish	23 750	17 000
71	Madaniyat va san'at	45 200	32 500
72	Ko'rgazmalar	34 900	26 100
73	Madaniy dam olishni tashkil etish (bog'lar, zooparklar, televideniyalar va radioeshittirishlar redaksiyalari)	32 300	23 000
74	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	51 700	36 900
75	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	19 600	13 800
76	Avtomaktablar	28 650	16 400
77	O'quv amaliyot poligonlari (test tajriba va sinov maydonlari)	16 000	11 300
Moliya - kredit faoliyati			
78	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	45 200	32 500
79	Auditorlik faoliyati	45 200	30 400
80	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	70 800	50 800
81	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	45 200	32 500
82	Bankomatlar	647 000	463 300
83	Paynetlar	129 700	92 750
84	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (kassalar)	129 700	92 750
85	Front-ofislar (Banklar uchun)	55 200	45 200
86	Bank xizmatlari ofisi	45 200	32 500
87	Sug'urta faoliyati	38 900	32 500
88	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	70 800	50 800
Faoliyatning boshqa turlari			
89	Notarial xizmatlar	45 200	32 500
90	Sud va yuridik xizmat muassasalari hamda advokatlar kollegiyasi	38 900	28 200

91	Jamoat birlashmalari	13 050	9 100
92	Omborxonalar	45 200	32 500
93	Davlat korxona va muassasalari	19 600	13 800
94	Xususiy tashkilotlarga ofis	70 800	50 800
95	Arxiv xizmati	19 600	11 550
96	Tahririyat va nashriyotlar	26 000	18 500
97	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	26 000	18 500
98	Laboratoriyalar (Tibbiy xizmatlardan tashqari)	32 300	23 000

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2023-yildagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 441-son qaroriga ham tatbiq etiladi.

** Mazkur faoliyat turlari bo'yicha 4 va 5 toifadagi tumanlar hududidagi davlat mulki bo'lgan ijtimoiy soha obyektlarini faqat o'z faoliyat yo'nalishini saqlagan holda ijaraga berishda amaldagi minimal stavkaga nisbatan 50 foiz imtiyoz qo'llaniladi.

Andijon viloyat hokimining
2025-yil 31-yanvardagi
39-1-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Sanoat zonalari hududlaridagi davlat ko'chmas mulkini 2025-yilda ijaraga berishda 1
kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining
eng kam stavkalari**

so'm

T/P	Худуд номи	Taklif etilayotgan narx (QQS bilan birga) (respublika tuman va shaharlari toifalari bo'yicha)				
		1-toifa (1 kv.m)	2-toifa (1 kv.m)	3-toifa (1 kv.m)	4-toifa (1 kv.m)	5-toifa (1 kv.m)
1	Andijon shahri	107 520				
2	Andijon, Asaka va Shahrixon tumanlari, Xonobod shahri		91 392			
3	Baliqchi, Buloqboshi, Qo'rg'ontepa, Oltinko'l va Xo'jaobod tumanlari			75 264		
4	Jalaquduq, Izboskan, Marhamat va Paxtaobod tumanlari				59 136	
5	Bo'ston va Ulug'nor tumanlari					53 760

**Ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan
koeffitsientlarning hisoblash tartibi**

№	Bino, xonalar va ularga biriktirilgan hududlar joylashgan o'rni va turlari bo'yicha	Qo'llaniladigan koeffitsientlar	
1.	Binolarni hududiy zonalari bo'yicha koeffitsienti (Kz)		
	1-toifa (Andijon shahri)	2.5	
	2-toifa (Andijon, Asaka va Shahrixon tumanlari, Xonobod shahri;)	2.0	
	3-toifa (Baliqchi, Buloqboshi, Qo'rg'on tepa, Oltinko'l va Xo'jaobod;)	1.8	
	4-toifa (Jalaquduq, Izboskan, Marhamat va Paxtaobod;)	1.6	
	5-toifa (Bo'ston va Ulug'nor.)	1.5	
2.	Binolarni qurilish turi bo'yicha koeffitsient (Kq)	Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlarga	Tumanlarga va tumanlarga bo'ysunuvchi shaxarlarga
Jumladan:			
	- asosiy yoki ma'muriy binolar uchun	2,0	1,5
	- alohida turadigan binolar uchun	1,5	1,3
	- qo'shimcha qurilgan binolar uchun	1,5	1,3
	- binoning tom qismi uchun	0,5	0,4
	- cherdak qismi uchun	0,5	0,4
	- boloxona qismi uchun	0,5	0,4
	- yarim yerto'la qismi uchun	0,3	0,2
	- yerto'la qismi uchun	0,3	0,2
3	Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti (Kh)		
	- Tutashib ketgan hududdan foydalanilmaganda	0	0
	- Tutashib ketgan hududdan foydalanilganda	1,0	0,8
4	Ijara maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (Ko)		
	- asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashganda	2,0	1,5
	- ikkinchi darajali avtotransport yo'llari	1,5	1,0

	bo'ylab joylashganda		
--	----------------------	--	--

Davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdorini hisoblab chiqish quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Ts = Es * Kz * (Kq + Kh + Ko)$$

Bunda:

Ts – davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

Es - davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

Kz - hududiy zonalar koeffitsienti;

Kq - qurilish turi bo'yicha koeffitsient (*shu jumladan: alohida turgan bino, qo'shimcha qurilgan bino, binoning yuqori (tom) qismi, cherdak, boloxona, yarim yerto'la, yerto'la*).

Kh - tutashib ketgan xududdan foydalanish koeffitsienti;

Ko- tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (*asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish va boshqalar*).

Amal qilish muddati navbatdagi yilga oʻtadigan davlat koʻchmas mulkini ijaraga berish shartnomasi boʻyicha boʻlajak yil davri uchun ijara toʻlovining miqdori qoʻshimcha shartnoma (kelishuv) bilan kelgusi yilga tasdiqlangan ijara toʻlovining eng kam miqdorlariga mutanosib tarzda oʻzgartirilib, quyidagi tartibda hisoblanadi:

$$Ts_2 = (Es_2 / Es_1) * (As / Im)$$

Bunda:

Ts₂ - kelgusi yilga bir kv.metr uchun ijara toʻlovining miqdori;

Es₁ - avvalgi yilga bir kv.metr uchun ijara toʻlovining eng kam miqdori;

Es₂ - kelgusi yilga bir kv.metr uchun ijara toʻlovining eng kam miqdori;

As - auksion natijalari boʻyicha belgilangan yillik ijara toʻlovi;

Im – shartnoma boʻyicha ijara olingan maydon;

Bunda hisoblangan ijara toʻlovi miqdori elektron onlayn-auksion savdosi natijasi boʻyicha belgilangan ijara toʻlovi miqdoridan kam boʻlgan taqdirda, kelgusi yil uchun ijara toʻlovi miqdori elektron onlayn-auksion savdosi natijasi boʻyicha belgilangan ijara toʻlovi miqdorida belgilanadi.

Andijon viloyat hokimining
2025-yil 31-yanvardagi
39-1-0-Q/25-son qaroriga
4-ilova

Bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek alohida ajratilgan maydonlarda (asfaltlangan va betonlashtirilgan hududlarda) radio, uyali va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida) foydalaniladigan maydon uchun ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlar miqdorini hisoblash

TARTIBI

1. Bino va inshootlarning yuqori (tom) qismi, cherdak, bolohona (shuningdek, davlat mulki bo'lgan inshootlarning yuqori qismi) qismlarida o'rtatilganda:

$$Ts = Es * Kz * (Kq + Kh + Ko).$$

Bunda:

Ts - davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

Es - davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

№	Davlat mulki bo'lgan inshootlarning yuqori (tom) qismida joylashgan o'rni va turlari bo'yicha	Qo'llaniladigan Koeffitsientlar	
		viloyatga bo'ysunuvchi shaharlarga	tumanlarga va tumanlarga bo'ysunuvchi shaharlarga
1	Binolarni hududiy zonalari bo'yicha koeffitsienti (Kz)	2,0	2,0
2	Binolarni qurilish turi bo'yicha koeffitsient (Kq)		
	Jumladan:		
	- binoning tom qismi uchun	0,5	0,4
	- cherdak qismi uchun	0,5	0,4
	- boloxona qismi uchun	0,5	0,4
3	Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti (Kh)		
	- Tutashib ketgan hududdan foydalanilmaganda	0,0	0,0
4	Ijara maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (Ko)		

	- avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashgan hududdagi radio, uyali va peydjing aloqa kompaniyalarining o‘rnatiladigan tom qismidagi qurilmalari uchun	0,4	0,4
--	--	-----	-----

2. Bino va inshootlarga biriktirilgan shuningdek (asfaltlangan va betonlashtirilgan hududlardagi) alohida ajratilgan maydonlarga o‘rnatilganda:

$$T_s = E_s \cdot K_z \cdot (K_q + K_h + K_o).$$

Bunda:

T_s - davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga kv.metr uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori;

E_s - davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga kv.metr uchun ijara to‘lovining eng kam stavkasi;

№	Davlat mulki bo‘lgan inshootlarning alohida ajratilgan (asfaltlangan va betonlashtirilgan) maydonlarida joylashgan o‘rni va turlari bo‘yicha	Qo‘llaniladigan koeffitsientlar	
		viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlarga	tumanlarga va tumanlarga a bo‘ysunuvchi shaharlarga
1	Binolarni hududiy zonalari bo‘yicha koeffitsienti (K _z)	2,0	2,0
2	Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti (K _h)		
	- Tutashib ketgan hududdan foydalanilganda	1,0	0,8
3	Ijara maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (K _o)		
	- avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashgan hududdagi radio, uyali va peydjing aloqa kompaniyalarining o‘rnatiladigan yer qismidagi qurilmalari uchun	1,5	1,3

Izoh: Asfaltlangan va betonlashtirilgan hududlardagi alohida ajratilgan maydonlarga radio, uyali va peydjer aloqa antennalari o‘rnatilganda, foydalanadigan maydon uchun hisoblanadigan ijara stavkalari (*tortqich qoziqlarining perimetri bo‘yicha, inshoot va texnik hududlar qo‘shilgan holda*), **K_z; K_h va K_o** koeffitsientlari qo‘llanilgan holda hisoblanadi. Bunda, qurilish turi bo‘yicha koeffitsienti (**K_q**) qo‘llanilmaydi.

3. Bino va inshootlarning ichki qismida joylashgan xonalarga texnik uskunalari o‘rnatilganda:

$$Ts = Es * Kz * (Kq + Kh + Ko).$$

Ts - davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

Es - davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

№	Davlat mulki bo'lgan inshootlari xonalarining ichki qismida joylashgan o'rni va turlari bo'yicha	Qo'llaniladigan koeffitsientlar	
		viloyatga bo'ysunuvchi shaharlarga	tumanlarga va tumanlarga bo'ysunuvchi shaharlarga
1	Binolarni hududiy zonalari bo'yicha koeffitsienti (Kz)	2,0	2,0
2	Binolarni qurilish turi bo'yicha koeffitsient (Kq)		
	Jumladan:		
	- asosiy yoki ma'muriy binolar uchun	2,0	1,5
	- alohida turadigan binolar uchun	1,5	1,3
	- qo'shimcha qurilgan binolar uchun	1,5	1,3
3	Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti (Kh)		
	- Tutashib ketgan hududdan foydalanilmaganda	0	0
4	Ijara maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (Ko)		
	- asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashganda	2,0	1,5
	- ikkinchi darajali avtotransport yo'llari bo'ylab joylashganda	1,5	1,0

Amal qilish muddati navbatdagi yilga o'tadigan davlat ko'chmas mulkini ijaraga berish shartnomasi bo'yicha bo'lajak yil davri uchun ijara to'lovining miqdori qo'shimcha shartnoma (kelishuv) bilan kelgusi yilga tasdiqlangan ijara to'lovining eng kam miqdorlariga mutanosib tarzda o'zgartirilib, quyidagi tartibda hisoblanadi:

$$Ts_2 = (Es_2 / Es_1) * (As / Im)$$

Bunda:

Ts_2 - kelgusi yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining miqdori;

Es_1 - avvalgi yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

Es₂ - kelgusi yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

As - auksion natijalari bo'yicha (avvalgi yil kelishuv shartnomasidagi) belgilangan yillik ijara to'lovi;

Im – shartnoma bo'yicha ijara olingan maydon;

Bunda hisoblangan ijara to'lovi miqdori elektron onlayn-auksion savdosi natijasi bo'yicha belgilangan ijara to'lovi miqdoridan kam bo'lgan taqdirda, kelgusi yil uchun ijara to'lovi miqdori elektron onlayn-auksion savdosi natijasi bo'yicha belgilangan ijara to'lovi miqdorida belgilanadi.

Andijon viloyat hokimining
2025-yil 31-yanvardagi
39-1-0-Q/25-son qaroriga
5-ilova

**Ijara to'lovining eng kam stavkasini hisoblashda, davlat obyektlariga
qo'shimcha koeffitsientlar qo'llaniladigan viloyatning shahar va tumanlaridagi
birinchi darajali ko'chalari**

RO'YHATI

Andijon shahri bo'yicha			
Navoiy shoh ko'chasi	Yu.Otabekov ko'chasi	Lermontov ko'chasi	Aeroport ko'chasi
Cho'lpon shoh ko'chasi	Mustaqillik ko'chasi	Furqat ko'chasi	Qo'shariq ko'chasi
O'zbekiston ko'chasi (1 qism)	Bobur shoh ko'chasi (klinika)	A.Temur ko'chasi	Istiqlol ko'chasi
O'zbekiston ko'chasi (2 qism)	Bobur shoh ko'chasi (gidroliz)	Toshkent ko'chasi	Milliy tiklanish ko'chasi
Pirmuxammedov ko'chasi	Bobur shoh ko'chasi (yangi)	D.Eshon ko'chasi	Lomonosov ko'chasi
Mashrab ko'chasi	O'sh ko'chasi		
Xonobod shahri bo'yicha			
I.Karimov ko'chasi	Xonobod ko'chasi	Koinot ko'chasi	Baxshi ko'chasi
Andijon tumani bo'yicha			
Chem bog'ishamol yo'li	Boburshoh ko'chasi	Komolot-Xortum-Bog'ishamol ko'chalari	Otabekov ko'chasi
Dukchi Eshon ko'chasi	U.Yusupov ko'chasi	Cho'lpon ko'chasi	Tojik ko'chasi
Navoiy shoh ko'chasi	Furqat ko'chasi	Amur Temur shoh ko'cha	
Asaka tumani bo'yicha			
Farg'ona ko'chasi	Toshkent-O'sh yo'li ko'chasi	Umid ko'chasi	Xumo ko'chasi
Baliqchi tumani bo'yicha			
Baliqchi shoh ko'chasi	Chinobod shoh ko'chasi	I.Xudoyberdiev nomli ko'chasi	Baliqchi-O'rmonbek yo'li
Andijon-Namagan ko'chasi	O'zbekiston shoh ko'chasi		
Bo'z tumani bo'yicha			
Mustaqillik ko'chasi			

Buloqbooshi tumani bo'yicha			
Guldasta ko'chasi	Olmazor ko'chasi	Do'stlik ko'chasi	Farog'at ko'chasi
Payvasta ko'chasi	Islomobod ko'chasi	Sarbondetpa ko'chasi	Tayaka ko'chasi
Oxunboboev ko'chasi	Yangichak ko'chasi	Bo'ston ko'chasi	Oltin Meros ko'chasi
Qo'rg'oncha ko'chasi	Qumariq ko'chasi	Buyuk kelajak ko'chasi	Ibrat 1 ko'chasi
Zarg'aldoq ko'chasi	Usmonbod ko'chasi	Chaqar 1 ko'chasi	Otbozor ko'chasi
To'g'risuv ko'chasi	To'rtol ko'chasi	Chaqar 2 ko'chasi	Qizil uy ko'chasi
Chilustun ko'chasi	Yuqori Raish ko'chasi	Oqqo'rg'on ko'chasi	Oqqo'rg'on ko'chasi
Ko'prik ko'chasi	O'rta Raish ko'chasi	Paxtaobod ko'chasi	Obihayot ko'chasi
Kelajak ko'chasi	Suvluq ota ko'chasi	Nayman ko'chasi	Qo'shchinor ko'chasi
Yangi ariq ko'chasi			
Jalaquduq tumani bo'yicha			
Nemat ko'chasi	Ko'chaboshi ko'chasi	Navoiy ko'chasi	Visol ko'chasi
O'zbekiston ko'chasi			
Izboskan tumani bo'yicha			
Kichik daha ko'chasi	Sihatgoh ko'chasi	Tosh yo'li (Mirzaolimov) ko'chasi	
Baraka ko'chasi			
Marxamat tumani bo'yicha			
Mustaqillik ko'chasi	Ipak yo'li ko'chasi		
Oltinko'l tumani bo'yicha			
Obod ko'chasi	Dalvarzin ko'chasi	Ganjiravon ko'chasi	Tinchlik ko'chasi
Ayroncha ko'chasi	Mustaqillik ko'chasi	Nurafshon ko'chasi	Qayirma ko'chasi
Oltinko'l ko'chasi	Qo'shko'prik ko'chasi	Shodlik ko'chasi	Temirxo'ja ko'chasi
Ors ko'chasi	Shaxrixon ko'chasi	Oltin sohil ko'chasi	Navoiy ko'chasi
Islomobod ko'chasi	A.Mirzaaxmedov ko'chasi	Nurli xayot ko'chasi	Andijon ko'chasi
Suvyulduz ko'chasi	Markaz ko'chasi	Adolat ko'chasi	Yorqinchek ko'chasi
Uzumbog' ko'chasi	M.Xayitov ko'chasi	Madyorobod ko'chasi	Obod ko'chasi
Mirobod ko'chasi	K.Olimov ko'chasi	Xuriyat ko'chasi	Chaqqon 2 ko'chasi
Uzun ko'chasi	Ibrat ko'chasi	Vatanparvar ko'chasi	Mashinasozlar ko'chasi
O'zbekiston ko'chasi	Asakalik ko'chasi	Haqiqat ko'chasi	Qashqar ko'chasi
Qipchoq ko'chasi			
Paxtaobod tumani bo'yicha			
Diydor ko'chasi	Nuravshon ko'chasi	Musaffo ko'chasi	Pillakash 3 ko'chasi

Shalola ko'chasi	Yoshlik ko'chasi	Suvoqava ko'chasi	Semrug' ko'chasi
Hunarmandlar ko'chasi	Obod o'lka ko'chasi	Xuvaydo ko'chasi	Ozod diyor ko'chasi
Shaydo ko'chasi	Oltin yo'l ko'chasi	Mehr nuri ko'chasi	Durafshon ko'chasi
Mangulik ko'chasi	Xizmatchi ko'chasi	Nurobod ko'chasi	Shomat ko'chasi
Kelajak ovozi ko'chasi	Yoshligim ko'chasi	Xalqlar do'stligi ko'chasi	Ser suv ko'chasi
Qayrag'och ko'chasi	Xur o'lka ko'chasi	Ilg'or ko'chasi	Soy yo'li ko'chasi
Sog'lom avlod ko'chasi	A.Temur ko'chasi		
Ulug'nor tumani bo'yicha			
Navoiy shoh ko'chasi	Farxod ko'chasi	Marg'ilon ko'chasi	Namangan chegara stelloi
Mustaqillik ko'chasi	Shukrona ko'chasi	Savdogarlar ko'chasi	A.Mamatov ko'chasi
Shaxrixon 1 ko'chasi	Sheroziy ko'chasi	Yozyovon chegara stelloi	
Xo'jaobod tumani bo'yicha			
Munduz ko'chasi	Navoiy ko'chasi	Ipakchi ko'chasi	Faqirqishloq ko'chasi
Yangi Xayot ko'chasi	Baxrin ko'chasi	Sanoatchi ko'chasi	Turobod ko'chasi
Sarqamish ko'chasi	Navbaxor ko'chasi	Egamberdi ko'chasi	Yangi Farg'ona ko'chasi
Shaxrixonsoy ko'chasi	Bobur ko'chasi	Davlatobod ko'chasi	
Shaxrixon tumani bo'yicha			
Chinobod ko'chasi	Yorkent ko'chasi	R.Yodgorov ko'chasi	Xamza ko'chasi
M.Jalil ko'chasi	Shaxrixon shoh ko'chasi		
Qo'rg'ontepa tumani bo'yicha			
Mustaqillik ko'chasi	Mingchinor ko'chasi	Jon to'ra ko'chasi	Qorasadoq ko'chasi
Ilg'or ko'chasi	Joxon ko'chasi	Bo'rilik ko'chasi	Uch tegirmon ko'chasi
Go'zal ko'chasi	Qo'rasuv ko'chasi	Qurama ko'chasi	Uychi ko'chasi
Buyuk ko'chasi	Oqtapa ko'chasi	Andijon ko'chasi	Sarishta ko'chasi
G'allakor ko'chasi	Xotira ko'chasi	Kichik sovrindor ko'chasi	O'rnak ko'chasi
Kattaqo'rg'on ko'chasi	A.Temur ko'chasi	So'g'diyona ko'chasi	Obod ko'chasi
Munavvar ko'chasi	Qomus ko'chasi	Fermerlar ko'chasi	Jannat bog'i ko'chasi
Sardoba ko'chasi	At Termiziy ko'chasi	Xolis ko'chasi	Jiydazor ko'chasi
Buyuk Ipak yo'li ko'chasi			

Izoh: Ushbu ro'yhatga kiritilmagan ko'chalar ikkinchi darajali ko'chalar hisoblanadi.

